

DURAGAY QUYONLARNI URUG' SIFAT KO'RSATKICHLARI

Ruziev R.I.

Quyunchilik seleksiyasi va genetika markazi katta ilmiy xodimi, q.x.f.n.

Yusupov O.Y.

Samarqand davlar veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Toshkent filiali (PhD) tayanch doktaranti

Allashev F.S.

Quyunchilik seleksiyasi va genetika markazi (PhD) tayanch doktaranti

Annotatsiya: Maqolada Qaraqalpog'iston sharoitida Flandr zoti, Kaliforniya zotli quyonlarni mahalliy quyonlar bilan chatishtirishdan olingan erkak quyonlarni urug' sperma mahsuloti ko'rsatkichlari keltirilgan.

Kalit so'zlar: bonitrovka, otalanish, miqdor ko'rastkichi, urug' hujayrasi, suniy urug'lantirish, sifat kursatkichi, suniy qin, suniy qochirish, kislotalik darajasi, konsentratsiyasi.

Abstract: The article presents the indicators of semen production of male rabbits obtained from crossbreeding of Flandre breed, California breed rabbits with local rabbits in the conditions of Karakalpakstan.

Keywords: bonitrovka, fertilization, quantity indicator, sperm cell, artificial insemination, quality index, artificial vagina, artificial fertilization, acidity level, concentration.

Kirish

Quyunchilik fermalarida o'zluksiz ravishda bir maromda go'sht ishlab chiqarishni uchun ona quyonlarni suniy qochirish texnologik jarayonni qo'llash orqali yil davomida rejalashtirilgan go'sht mahsulotini ishlab chiqarishga erishish mumkin. Xo'jalikdagi mavjud ona quyonlarni bonitrovka qilingandan so'ng ularni qochirishda foydalaniladigan erkak quyonlarning urug' berishi, urug' mahsuloti sifat va miqdor ko'rsatkichlarini laboratoriyada tekshirishdan o'tkazilib baholangandan so'ng ulardan nasl olishda foydalanishga ruhsat etiladi. Nasili quyondan olingan urug' sifatsiz bo'lsa ona quyonlarni otalantira olmaydi. Bunda quyonlardan urug' olishda uchun sun'iy qin ishlatiladi. Nasili erkak quyonning urug'ining sifati qat'iy doimiy emas, uning sifati oziqlantirish, parvarish qilish, jinsiy foydalanish rejimi va uning sog'lig'i holatiga qarab o'zgaradi. Urug' mahsuldorligini va uni sifatini aniqlash uchun olingan har bir eyakulyatsiyaning urug'lantirish uchun yaroqliligi va suyultirishning optimal darajasini belgilash uchun zarurdir. Urug' hujayrasini baholashda uning zichligi, spermatozoidlarning harakatchanligi, konsentratsiyasi, tirik va o'lik sperma foizi, patologik shakllar soni va omon qolish darajasi hisobga olinadi. [2. 120 b].

Hozirgi kunda dolzarb vazifalaridan biri respublikamiz aholisini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashdan iborat. Chorvachilikda go'sht, tuxum, baliq mahsulotlari bilan bir qatorda quyon go'shti yetishtirish alohida ahamiyatga ega. Quyonning tanasi kichik bo'lsada, beradigan mahsuloti inson uchun juda foydali ekanligini eslatib o'tmoqchimiz. Quyon go'shti sog'liq uchun foydali bo'lib, boshqa go'shtlardan ta'mi va parhez xususiyatlari bilan ajralib turadi. Yangi muzlatilgan quyon go'shtidan barcha mavsumlarda foydalanish imkonini beradi. [3. 154 b].

Jaxonda sanoat usulida quyon boqish keng tadbiriq etilgan bo'lib, maxsus kataklarda, yopiq binolarda optimal mikroklimat sharoiti ta'minlangan holda to'liq ratsion asosida belgilangan ozuqa bilan boqiladi. [1].

Materiallar va usullar

Naslli quyonlarni urug' sifatini aniqlash to'liq tekshirish yilining boshida, keyin esa 10–15 kundan yoki kamida oyiga bir marta amalga oshiriladi. Tizimli ravishda, har safar eyakulyatsiya olinganda, tashqi belgilar rangi, hidi, uning hajmi, mikroskop ostida tekshirilganda urug' hujayralarining harakatchanligi va sperma konsentratsiyasi asosida baholash amalga oshiriladi.

Quyonchilikda suniy qochirish orqali xo'jalikda go'sht ishlab chiqarishni, ona quyonlardan bolalarini bir vaqtda ajratish go'shtga bir vaqtda topshirishni va binoni bir vaqtda yosh o'suvchi quyon bolalari bilan to'ldirishni va bir vaqtda binoni sanatsiya uchun bo'shatishni rejalashtirish mumkin bo'ladi. Shundan kelib chiqqan holda nasili quyonlardan olinadigan urug'ni sifatini baholash sun'iy urug'lantirish texnologiyasining muhim ishlaridan biri hisoblanadi. Nasilli quyonlardan olingan urug'larni sifati, quyuqligi konsentratsiyasi pH kislotalik darajasini laboratoriyadan aniqlash orqali nasili quyonlarni urug'idan foydalanish mumkinmi yoki yo'qligini xar 15 kun yoki bir oy davomida nasili erkak quyonlarning sperma mahsulotini tekshirish orqali nasilchilikda foydalanish mumkinligi tasdiqlangandan so'ng suniy qochirish uchun ishlatishga ruhsat etiladi.

Ilmiy tadqiqot tajribasi Qoraqolpog'istonning Amudaryo tumanidagi "Amudaryo sohili" oilaviy quyonchilik fermasida ish olib borildi. Tadqiqot ob'ekti sifatida kaliforniya zotiga mansub erkak quyonlar bilan 10 bosh Kaliforniya zotiga mansub erkak quyonlar bilan 10 bosh mahaliy populatsiyaga mansub urg'ochi quyonlar qochirildi hamda analoglar prinsipi bo'yicha tanlandi.

Tajriba uchun ajratilgan erkak va urg'ochi quyonlar asrash sharoitiga ko'ra bir xil usulda va bir xil tipda oziqlantirildi. Erkak quyonlardan urug' sperma sun'iy qin yordamida olindi. Har bir erkak quyondan 2 ta eyakulyatsiya orqali urug' sperma olindi (sperma to'plash orasidagi interval 5–10 minut). Olingan urug' namunasi rang, iflosliklari va hid vizual baholash orqali baholandi hamda eyakulyatsiya miqdori aniqlandi. Urug' hujayralari spermatozoidlarning faolligi mikroskop ostida 37–38°C haroratda, xona namligi 75%, harorat 20–21°C haroratda aniqlandi.

Nasilli quyonlarni urug' sifat ko'rsatkichlari (n-10)

No	Flandr	Urug' hajmi,ml	Kislo taligi pH	Faolliq%	Konsent ratsiyasi	F1 Duragay	Urug' hajmi,ml	Kislo taligi pH	Faolliq	Konsent ratsiyasi
1	17/20	1,33	7,1	78,0	770	20/45	1,35	6,7	75,8	755
2	20/21	1,4	6,7	75,8	732	22/67	1,37	6,5	74,1	720
3	15/20	1,47	6,9	80,2	808	16/24	1,4	6,9	78,5	780
O'rtacha		1,4	6,9	78	770		1,37	6,70	76,13	751,67
m		0,25	0,07	1,47	25,3		0,31	0,08	1,51	29,8

Natijalar

Ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, barcha namunalarda eyakulyatsiyasi qon, yiring, siydik aralashmalarisiz sut-oq rangga ega, konsistensiyasi suvli, hidi o'ziga xosdir. Flandr, Kaliforniya zoti bilan mahalliy populyatsiyadagi quyonlarni chatishtirishdan olingan F1 duragay erkak quyonlaridan olingan 10 ta eyakulyatsiya namunalariga mikroskopik baho berildi olingan natijalar 1-jadvalda keltirilgan. Tajribadagi erkak quyonlardan olingan sperma miqdori kaliforniya zotli erkaklarda maksimal, flandr zotli erkak quyonlarda o'rtacha ko'rsatkichlari minimal ($R>0,95$) tashkil etdi.

Flandr, Kaliforniya zoti bilan mahalliy populyatsiyadagi quyonlarni chatishtirishdan olingan F1 duragay quyonlarning laboratoriya sharoitida urug' sifati tekshirildi. Flandr zotli erkak quyonlardan olingan urug' hajmi o'rtacha 1,4 ml bo'lib Kaliforniya zoti bilan mahalliy populyatsiyadagi quyonlarni chatishtirishdan olingan F1 duragay erkak quyonlardan olingan urug' hajmiga nisbatan 2,14 foizga ortiq, kislotalik darajasi har ikkala zotda ham bir xil ko'rsatkichga ega bo'ldi. Urug' xujayrasini faolliqi bo'ycha kaliforniya zotida 78%-ni tashkil qilib F1 duragay quyonlarga nisbatan 2,4% ga ortiqcha bo'ldi. Olingan urug'ning konsentratsiyasi kaliforniya zotida o'rtacha 770 tashkil qilib F1 duragay quyonlarning o'rtacha ko'rsatkichidan 2,38%-ga ortiqcha bo'ldi.

Quyon spermasi pH neytral reaksiyaga ega bo'ldi, netral muhitda urug' sperma hujayrasini xayotiy jarayoni normal kechadi. Kislotalik darajasining oshishi bilan spermatozoidlarning hayotiy jarayonlari o'zgarishlar yuzaga keladi kislotalaik darajasining ishqoriy tomonga siljishi bilan spermatozoidlarning o'limi ham sodir bo'lishi mumkin.

Tajribamizdagi olingan ma'lumotlar I.I. Sokolovskaya (1964) ma'lumotlariga mos keladi. Uning ilmiy ma'lumotlariga ko'ra tana jussasi kichik zotli quyonlarda eyakulyatsiya hajmi 0,2 – 0,5 ml, yirik tana tuzilishiga ega bo'lgan zotlarda 0,5 – 2,5 ml ni tashkil qilishi uning tajribalarida isbotlangan.

Xulosalar

1. Olingan urug' sperma miqdori Kaliforniya zoti bilan mahalliy populyatsiyadagi quyonlarni chatishtirishdan olingan F1 duragay zotli erkaklar quyonlarda tenqurlari Flandr zotiga mansub erkak quyonlarga nisbatan sperma miqdori bir oz yuqori ($P>0,95$).

2. Flandr va duragay zotlarining urug'ini biologik baholash ularning konsentratsiyasi va faolligi bo'yicha farq qilmasligini, pH normal chegaralarda ekanligini ko'rsatdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. A.X.Xolmatov, R.Ruziev, Sh.K.Mamatiminov, K.Xidirov, A.Komilov. Quyonlarni boqish, parvarishlash, ko'paytirish va davolash bo'yicha o'quv qo'llanma Toshkent 2019.

2. Komlatskiy V.I. Effektivnoe krolikovodstvo. – FGBOU VPO «Kubanskiy gosudarstvenniy agrarniy universitet», 2013. – 120 c.

3. Ruziev R.I., Yuldashov D.Q., Baxriddinov F.B., Allashev F.S. "Quyonlarni saqlash, oziqlantirish va nasilchilik ishlari" Toshkent-2023.-154 b